




# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

5/2022

5/2022



E-ISSN 2181-4406  
9 772181 146004



ISSN 2181-6875  
9 772181 687004

@buxdu\_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

**PUBLISHED  
SINCE 2000**  
(Online since 2020)

**PUBLISHED SIX  
TIMES A YEAR**

**2022/5(93)**

**CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Khamidov O.Kh.**

Doctor of Economics, Professor

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Rasulov T.Kh.**

Doctor of Physics and Mathematics, Docent

**INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Kuzmichev N.D. (Russia)**

Doctor of Physics and Mathematics, Professor

**Danova M. (Bulgaria)**

Doctor of Philology, Professor

**Margianti SE. (Indonesia)**

Doctor of Economics, Professor

**Wünsch Th. (Germany)**

History of E.Europe Dr. of phil. habil, Professor

**Minin V.V. (Russia)**

Doctor of Chemical Sciences

**Tashkaraev R.A. (Kazakhstan)**

Doctor of Technical Sciences

**Muminov M.E. (Malaysia)**

Candidate of Physics and Mathematics

**Srivastava P.K. (India)**

American and English Literature PhD in English

**NATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Adizov B.R.**

Doctor of Pedagogical sciences, Professor  
(Deputy Editor-in-Chief)

**Abuzalova M.K.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**Amonov M.R.**

Doctor of Technical sciences, Professor

**Barotov Sh.R.**

Doctor of Psychological sciences, Professor

**Bakoyeva M.K.**

Doctor of Philological sciences

**Buriyev S.B.**

Doctor of biological sciences, professor

**Djurayev D.R.**

Doctor of Physics and Mathematics, Professor

**Durdiyev D.K.**

Doctor of Physics and Mathematics, Professor

**Olimov Sh.Sh.**

Doctor of Pedagogical sciences, Professor

**Kakhkhorov S.K.**

Doctor of Pedagogical sciences, Professor

**Umarov B.B.**

Doctor of Chemical sciences, Professor

**Urayeva D.S.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**Rashidov O.R.**

Doctor of Historical sciences, Docent

**Zaripov G.T.**

Candidate of technical sciences, Docent

**DEPUTY EDITORS-IN-CHIEF:**

**Navruz-zoda B.N.**

Doctor of Economics, Professor

**Turayev H.H.**

Doctor of Historical sciences, Professor

**Juraev N.K.**

Doctor of Political sciences, Professor

**Jumaev R.G.**

PhD in Political sciences, Docent

**Kuvvatova D.Kh.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**Akhmedova Sh. N.**

Doctor of Philological sciences, Professor

**SCIENTIFIC REPORTS OF  
BUKHARA STATE  
UNIVERSITY**

**\*\*\***

**BUXORO DAVLAT  
UNIVERSITETI ILMIY  
AXBOROTI**

**\*\*\***

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК  
БУХАРСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

*The journal is published in the Bukhara  
Regional Department of Press and  
Information of the Press and Information  
Agency of Uzbekistan on August 24, 2020  
With registered certificate № 1103*

*The journal "Scientific reports of Bukhara  
state university" is included in the list of  
scientific publications recommended to  
publish the main scientific results of  
doctoral dissertations of the Higher  
Attestation Commission under the  
Cabinet of Ministers of the Republic of  
Uzbekistan on philology and physical and  
mathematical sciences.*

*The journal is intended for professors  
and teachers of higher educational  
institutions, senior researchers, students,  
scientific staff of scientific research  
institutions, teachers of academic  
lyceums, professional colleges, as well as  
researchers in general secondary  
education and various fields.*

**Founder: BUKHARA STATE  
UNIVERSITY**

**Executive secretary:**

**Sayfullaeva N.Z.**

**Doctor of Philosophy in  
Pedagogical Sciences (PhD)**

**Editor: Sobirova Z.R.**

**Department technicians:**

**Shirnova M.Sh.**

**Raximova S.M.**



## MUNDARIJA

<b>EXACT AND NATURAL SCIENCES</b>		
<b>Khujayev L.Kh.</b>	Nonlinear inverse problems for the system of poroelasticity equations	3
<b>Raxmatova N.J.</b>	Analysis of the 1D fractional diffusion equation with initial-boundary problem	16
<b>Hasanov I. G.</b>	Structural changes in agriculture: problems of modernization and ways of solvation	22
<b>LINGUISTICS</b>		
<b>Юлдашева Д.Н.</b>	Ўзбек тилининг софлигини сақлашга масъулмиз	27
<b>Irgasheva F.B.</b>	Lingvokulturologiyaning tarixiy bosqichlari va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari	31
<b>Norova M.F.</b>	Phonopragmatic characteristics of apocope	35
<b>Ruzieva M. Kh.</b>	Clinical features of the human linguistic system	38
<b>Sirojova Z.N.</b>	Ingliz tilidagi qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlar sinkretizmining funksional tadqiqi	43
<b>Subxonova M.O.</b>	Lingvomadaniy birliklarning do'stlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarida ifodalanishi	48
<b>Sulaymanova M.Sh.</b>	The role of national values in teaching the native language	52
<b>Xamdamova G.X.</b>	Maqollarning nominativ-semantik xususiyatlari	57
<b>Xojiyeva M.Y.</b>	Shaxs semali leksemalar valentligi va so'z birikmasi	61
<b>Yokubova Sh.Y.</b>	Poetik nutqda metaforik birikmalar	65
<b>Зиёдуллаев А.Р.</b>	Эпонимларнинг мавзуй таснифи	70
<b>Наширова Ш.Б.</b>	Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча луғатлар учун кўп маъноли сўзларни танлаш мезонлари	75
<b>Рўзиев Я.Б.</b>	Ўзбек тилида биринчи тур ўзлаштирмалик ва гап	80
<b>Salixova N.N.</b>	Ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan undovlarning ma'no turlari	86
<b>Safarova M.Z.</b>	Etnonimiyaning o'rganilishi	90
<b>Тўраева Д.М.</b>	Пунктуацияда меъёр ва янгича аъъаналарнинг пайдо бўлиши	98

POETIK NUTQDA METAFORIK BIRIKMALAR

*Yokubova Shaxnoza Yusufovna,*  
*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*  
[Yokubovashaxnoza@gmail.com](mailto:Yokubovashaxnoza@gmail.com)

**Annotatsiya.** Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning obrazlilik (tasviriylik) va emotsionalligini kuchaytiruvchi unsurlardir. Bunday vositalarga tropning, ya'ni so'z ma'nosi ko'chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari kiradi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'z ma'nosi ko'chishining eng sermahsul usuli bo'lmish metaforani hosil qiluvchi birikmalar metaforik birikmalar ekanligi, metaforik birikmalar ma'lum bir lisoniy sintaktik qurilish qolipi hosilalari ekanligi, mazkur so'z birikmalarining bir qator ko'rinishlari poetik nutqda voqelanib turli xil badiiy tasviriy vosita yaratishi, mashhur o'zbek shoirlari Abdulla Oripov, Rauf Parfi va Shavkat Rahmon she'rlaridagi metaforik birikmalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** til, nutq, uslub, poetik nutq, tasviriy vositalar, leksema, metafora, ma'no ko'chish yo'llari, ma'no assotsiatsiyalari.

**Abstract.** Artistic images and expressive means are elements that enhance the figurativeness (figurativeness) and emotionality of the artistic language. These means include a number of forms of the trope, that is, the transfer of the meaning of the word, such as metaphor, metonymy, synecdoche, irony. Metaphor is one of the most commonly used metaphors in a work of art. In this article, the most productive way to convey the meaning of words in the Uzbek language is that the compounds that form a metaphor are metaphorical compounds, that metaphorical compounds are derivatives of a certain linguistic syntactic structure, a number of manifestations of these phrases in poetic speech, the creation of various artistic and visual means, metaphorical combinations in the verses of famous Uzbek poets Abdulla Oripov, Rauf Parfi and Shavkat Rakhmon.

**Keywords.** Language, speech, style, poetic speech, figurative means, lexemes, metaphors, ways of conveying meaning, semantic associations.

**Аннотация.** Художественные образы и выразительные средства - элементы, усиливающие образность и эмоциональность художественного языка. К таким средствам относится ряд форм тропа, то есть передачи значения слова, такие как метафора, метонимия, синекдоха, ирония. Метафора — одна из наиболее часто используемых форм в художественном произведении. В данной статье наиболее продуктивным способом передачи значения слов в узбекском языке является то, что соединения, образующие метафору, являются метафорическими соединениями, что метафорические соединения являются производными определенной лингвистической синтаксической структуры, ряд проявлений этих словосочетания в поэтической речи, создание различных художественно-образительных средств, метафорические сочетания в стихах известных узбекских поэтов Абдуллы Орипова, Рауфа Парфи и Шавката Рахмона.

**Ключевые слова:** язык, речь, стиль, поэтическая речь, образные средства, лексемы, метафоры, способы передачи смысла, смысловые ассоциации.

**Kirish.** Ilmiy adabiyotlarda badiiy tilning eng muhim o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari sifatida obrazlilik va ta'sirchanlik ko'rsatiladi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar umumlashtirilib "badiiy tasvir va ifoda vositalari" yoki "badiiy tasviriy vositalar" deb ataladi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda "poetik vositalar", "sintaktik figuralar", "stilistik figuralar" kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyish ham maqbul emas, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasviraydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya'ni ko'p hollarda bitta vositaning o'zi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi. Faqat lirik asarlarda qo'llaniluvchi ayrim vositalar borki, ular, asosan, ifodaviylikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Ma'lumki, nutq jarayonida biz so'zlarni o'z ma'nosida yoki ko'chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. So'zning odatiy ma'nosidan o'zga ma'noda qo'llanishi semantik sathdagi og'ish sanaladi. Ko'chma



ma'noda qo'llangan so'zlarning umumiy nomi trop (ko'chim) deb yuritiladi. So'z ma'nosi ko'chishining, ya'ni tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko'rinishlari mavjud. Badiiy asarda qo'llanilgan ko'chimlarning eng faol ko'rinishi metaforalardir. U ishlatilish darajasi, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirchanlik darajasi kabi jihatlari bilan faol qo'llanuvchi ko'chim turidir.

Ko'chimlarning ayrim bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan, "kun botdi", "bemaza gap" kabi birikmalarda so'z ma'nosi ko'chganligi aniq, biroq biz ularga shu darajada ko'nikib ketganmizki, hatto hozirda ularga ko'chim sifatida qaramaymiz. Badiiy asar matnida mazkur ko'chimlar qo'llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik sathda og'ishga yo'l qo'ygan deya olmaymiz, zero, ular yozuvchi tomonidan tayyor holda olingan. Demak, bu xil ko'chimlar matnda estetik funktsiya bajaraydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo'lmaydi.

Asar matnida badiiy adabiyotda an'anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko'chimlar ham ko'p uchraydi. Masalan, "shakar lab", "gul yuz", "bulbul", "sarv qomat", "qoshi kamon", "nargis ko'z" va hokazo. Bu xil ko'chimlar ham yuqoridagilar singari tayyor holda olinadi, biroq ulardan farqli o'laroq, matnda estetik funktsiya bajaradi: tasviriylikni, ifodaviylikni kuchaytiradi;

Nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashda xizmat qiladigan, muayyan matndagina ko'chma ma'noda qo'llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli o'laroq dunyoga kelgan ko'chimlar alohida o'rin tutadi. Ularni shartli ravishda "xususiy muallif ko'chimlari" deb atashimiz mumkin. Shu xildagi ko'chimlarga yozuvchining muayyan badiiy-estetik maqsadni ko'zlab yo'l qo'ygan semantik sathdagi og'ishi natijasidirki, uning badiiy til bobidagi mahorati xususida gap bo'lganda biz, avvalo, shu xil ko'chimlarni e'tiborga olishimiz kerak bo'ladi. Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi.

**Asosiy qism.** Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Metaforalarda narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik shakliga ko'ra, joylashish o'miga ko'ra va ichki mazmuniy o'xshashligiga ko'ra bo'lishi mumkin. Tabiiyki, bunda o'xshatilayotgan narsalardan aynan o'xshashlik talab qilinmaydi, ikki narsa-hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi. Masalan, "oltin kuz", "oltin qalam" birikmalarining birinchisida "rang", ikkinchisida "qimmat" asos uchun olingan.

"Qora niyat", "sovuq xabar", "shirin xotira", "achchiq haqiqat", "bemaza gap", "sayoz asar", "yengil qadam", "yorug' yuz", "po'lat iroda", "temir intizom", "majlisda savalamoq", "gapni gapga ulamoq" kabi birikmalarda metafora mazmuniga ko'ra hosil qilingan. Metafora ko'pincha: 1) inson ta'na a'zosi nomiga (*bosh, yuz, burun, og'iz, quloq, til, peshona, ko'z, oyoq, qosh, soch, tish, bel*); 2) kiyim qismiga (*yoqa, yeng, etak*); 3) hayvon, parranda yoki biror hasharot a'zosi nomi (*dum, nish, tumshuq*); 4) o'simlikning yoki uning qismi nomiga (*ildiz, tomir*); 5) qurol nomiga (*rayza, pichoq*); 6) turli belgi, harakat nomlari bo'lgan so'zlar (*baland, past, chaqmoq*) kabilarga o'xshatib hosil qilinadi.

Keltirilgan misol metaforaning eng sodda ko'rinishlaridan bo'lib, quyida o'xshashlik aloqalari birmuncha murakkabroq namoyon bo'luvchi xususiy muallif metaforalaridan bir nechasini mushohada qilib ko'ramiz. R.Parfining:

*"Suv ostida yaltiraydi tosh,*

*Xarsanglarda sinadi suvlar"* satrlarida metaforaning ma'nosi ikki bosqichda namoyon bo'ladi. Shoir tilimizda ancha keng qo'llaniluvchi suvning oynaga o'xshatilishiga tayanadi (birinchi bosqich) va shu asosda suvning xarsangga unilib parchalanishini oynaning sinishiga o'xshatadi (ikkinchi bosqich). Shoirning quyidagi:

*"Derazamga uriladi qor*

*Jaranglaydi jarangsiz kumush"* satrlarida metaforaning ma'no assotsiatsiyalari yanada kengroq. Ma'lumki, qorning kumushga (rang o'xshashligi jihatidan) o'xshatilishi ancha keng qo'llanadi. Shoir shu asosda "kumush"ning yana bir assotsiatsiyasini uyg'otadi: qorning yog'ishini "kumush tangalarning sochilishi"ga o'xshatadiki, go'yo kimdir xayr-ehson qilib tanga sochayotgandek. Xalqimizda "qor" yog'ishi to'kinlikdan, barakotdan deb bilinishi bizga ma'lum, albatta. Ko'ramizki, qor shoirning assotsiativ fikrlashida avvalo "kumush"ni, keyin xalqimizning maishiy tafakkurida muqim o'rinishgan fikrni uyg'otadi.

Ma'lumki, leksik metaforaning mazmuni bir so'z doirasida anglashilishi mumkin bo'lsa, matn ichidagi metaforaning ma'nosi matndagi boshqa so'zlar bilan aloqada oydinlashar ekan. Masalan, shoir yozadi:

*Burchak-burchakda jim tortishar burun,*

*Bilmam qanday o'y-u xayol ichida.*

*Tuzsiz she'rlarim deb shirindan shirin*

*Bo'lalarim yurar oyoq uchida...*



“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “tuzsiz” so‘zi quyidagicha izohlangan: “*tuzi yo‘q, tuzi me‘yoridan kam, past. Tuzsiz xamir*” [9;183]. Albatta, “tuzsiz” sifati o‘z ma‘nosida kelganda oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan qo‘llaniladi. So‘zning ko‘chma ma‘noda qo‘llanganligi faqatgina kontekstda, ya‘ni matn tarkibida boshqa so‘zlar bilan aloqaga kirishgandagina aniqlanadi. So‘zlar bilan aloqaga kirishuvi sintaktik aloqa mahsuli hisoblanadi. Demak, ma‘lum bir so‘zning ko‘chma ma‘noda kelishi uning boshqa bir so‘z bilan so‘z birikmasi hosil qilgandagina namoyon bo‘lar ekan. Taniqli shoirimiz Muhammad Yusuf ijodi o‘zining xalqonaligi, badiiy pafosining o‘tkirliги bilan alohida o‘ringa ega hisoblanadi. Mana shunday buyuk ijodkor o‘z ijod namunasini “shoh asar bo‘lsa-da, tupurdim o‘sha bolamni yig‘latib yozgan she‘rimga” deya iqrор keltiradi. Va ayni shu nuqtada she‘r dilingizni titratadi, boshda tushunarsizdek ko‘ringan satrlar qatidagi ma‘no ongingizga o‘chmas bo‘lib muhrlanadi.

Shoir ijodidan olingan yuqoridagi she‘riy misralarda qo‘llangan “*tuzsiz she‘rlar*”, “*shirindan shirin bolalar*” metafora asosida ko‘chgan so‘zli birikmalar nutqda xilma-xil ko‘rinishni voqelantiruvchi so‘z birikmasi lisoniy sintaktik qurilish qolipi hosilalari mahsuli hisoblanadi. “*Qora niyat*”, “*tuzsiz she‘r*”, “*shirin xotira*”, “*achchiq haqiqat*”, “*bemaza gap*”, “*sayoz asar*”, “*yengil qadam*”, “*visol kemasi*”, “*ishq sharobi*”, “*saodat sohili*”, “*majlisda savalamoq*”, “*gapni gapga ulamoq*” kabi ma‘nosi metafora asosida ko‘chgan so‘z birikmalari [I~O]=SB, [I<sup>qk</sup> ~ I<sup>ek</sup>]=SB, [I<sup>kk</sup>-F]=SB lisoniy sintaktik qurilish qoliplari hosilalari hisoblanadi.

Til jamiyat a‘zolari lisoniy ongining taraqqiyot darajasiga ko‘ra lisoniy vositalardan foydalanadi. Shoir yoki yozuvchi, umuman, so‘z san‘atini egallagan ijodkor bilan oddiy so‘zlovchining lisoniy imkoniyatlarni istifoda etishi orasidagi tafovutni saqlagan holda, aytish mumkinki, ijodkoming tilning mavjud imkoniyatlarini bilishi ulardan o‘rinli foydalanishi bilan belgilanadi. Quyida Abdulla Oripovning “O‘dina masjidi”, “Yoshligim” she‘rlaridan keltirilgan parchalar fikrimizning dalilidir:

*Zulmat nur eshigin daf‘atan yopib,  
Falakda mo‘ltirab qoldi yolg‘iz oy.  
Zindoning eng ovloq burchagin topib,  
Menga ham tayyorlab qo‘ydilar bir joy. [4;11]  
Tanidim yurtimni, qadim elimni,  
Alisher so‘zlagan suluv tilimni.  
Va lekin yovlarim to‘sib yo‘limni,  
Ne zabun kunlarni ko‘rgan yoshligim. [4;46]*

Kontekstual qo‘llangan *eshigin yopib, burchagin topib, tanidim yurtimni (elimni, tilimni), to‘sib yo‘limni, kunlarni ko‘rgan* kabi birikmalar [O<sup>kk</sup>-F]=SB qolip ko‘rinishining hosilalaridir. Bu siradagi *tanidim yurtimni, qadim elimni, Alisher so‘zlagan suluv tilimni* birikmasida tobe a‘zo mavqeyida uchta ot leksema – *yurtimni, elimni, tilimni* garchi kengaytiruvchilari bo‘lsa ham, uyushib kelgan. Tobe a‘zo mavqeyidagi har bir so‘z bilan hosil qilinadigan alohida birikmalar poetik nutqqa xos obrazlilik va ifodalardagi jozibadorlikka putur yetkazgan bo‘lardi. Shuning uchun shoir *tanidim yurtimni, tanidim elimni, tanidim tilimni* birikmalarini ta‘kid kuchiga ega bo‘lsa ham, qatorlashtirmaydi.

She‘riy misralarda qo‘llangan “*zulmatning nur eshigini yopishi*”, “*o‘yning mo‘ltirab qolishi*”, “*yovlarning yo‘lin to‘sishi*” va “*yoshlikning zabun kunlarni ko‘rishi*” kabi birliklarda badiiy tasvir vositasi bo‘lmish metaforning go‘zal namunalari namoyon bo‘lgan.

*Tongda qayturman deb, umidga to‘lib,  
Falak puchmog‘iga chekinar Quyosh.  
Endi marjon-marjon yulduzlar bo‘lib  
Samo yanog‘ida yaltiraydi yosh. [4;5]*

So‘nggi daqiqada *jang qilmoq, tongda qaytmoq, samo yanog‘ida yaltiramoq* birikmalari she‘r matnida sodda gap markazini (*So‘nggi daqiqada qilayotir jang, Samo yanog‘ida yaltiraydi yosh*), sodda gapning ravishdosh oborotli qismini (*Tongda qayturman deb*) lisoniy valentlik va nutqiy ma‘noviy kengayish qonuni asosida to‘ldirib turibdi. Ijodkor, umuman, istalgan nutq sohibi lisoniy valentlik va nutqiy ma‘noviy kengayish qonuniga amal qilar ekan, sintaktik birliklarning qurilish qoliplari haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasdan nutqning xarakteriga mos ifoda vositalaridan foydalanadi. Biroq shoirgina poetik nutqda har qanday lisoniy ifoda obraz yarata olmasligini chuqur anglaydi. Chunki poeziya tilning istalgan birliklari va ifoda vositalari bilan tilga kirmaydi. Uning o‘z vositalari va uslubi bor. Lisoniy birliklar-u ifoda vositalariga shoir tanlaydigan va shoirgagina tegishli ijodiy qiyofa va ruhning har gal yangi libosida jilolanadigan til borki, poeziya ana shu tilda so‘zlaydi. Shuning uchun A.Oripov tabiiy hodisalardagi jarayonni – quyosh botishi, kun va tun almashinuvini harakat va uning yuzaga chiqish o‘rni ma‘noli *so‘nggi daqiqada qilayotir jang* birikmasiga ko‘chirilgan kunning tun bilan olishuv holatiga o‘xshashlik asosida, yulduzlarning tungi osmonda paydo bo‘lishini esa harakatning yuzaga chiqish o‘rnini bildirgan *samo yanog‘ida yaltiraydi yosh*



birikmasiga ko'chgan o'z yoritqichini yo'qotgan samoning ko'z yosh to'kish holatiga monandlik asosida obrazli tasvirlaydi. Shoir barchaga birdek ma'lum tabiiy hodisalarning poetik manzarasini o'z lisoniy tafakkuri mahsulida hech bir ijodkor asarida takrorlanmas uslubi – obrazlar surati va siyrati orqali jonlantiradi. Ijodkor tabiiy hodisalardagi jarayonni ochishda metonimiyadan mohirona foydalangan va unda ham metonimiya metafora bilan baqamti qo'llangan.

Ishimizda so'z birikmalarining poetik nutq kengliklarida kuzatarkanmiz, Shavkat Rahmon she'rlari ularning poetik obraz yaratishda tilning boshqa sintaktik birliklariga o'xshamaydigan qirralarini ko'rishga imkon berganligini ta'kidlash lozim. Bunga sabab uning she'rlarida alangasidan ko'ngil cho'g'lanuvchi so'z va ifodalar R.Qo'chqorov ta'riflagan "shoirning qalbi...Shavkat Rahmonning qalbi...barkamol qalb, komil qalb... O'zligini anglagan, o'zlikni tanitgan qalb" [7; 374] ko'zgidir.

*Pano*h so'radimmi borimni yechib,  
*O'zni* urdimmi yo biron eshikka?  
*Qaltis* lahzalarda oridan kechib,  
*Kirdimmi* sichqonlar kirgan teshikka...  
*Bolam*, jonim bolam,  
*bu go'zal* hurlik,  
*umutma* bu hurlik to'ralgan kunni!

Olovqalb shoir Shavkat Rahmonning ushbu ajoyib misralarida tropning uchala ko'rinishi: metafora, metonimiya va sinekdoxa go'zal badiiy vosita yaratgan. Lirik qahramonning "*panoh so'rab borini yechmasligi*", "*o'zini biron eshikka urmasligi*", "*sichqonlar kirgan teshikka kirmasligi*" kabilar orqali ichki ruhiy holati, mardligi, dangalligi, allaqanday past kimsalar bilan teng bo'lmasligi tasvirlangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, badiiy-estetik funksiyadorligi, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko'chma ma'noda qo'llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli sifatida dunyoga kelgan ko'chimlar poetik nutqda alohida o'rin tutadi. "Xususiy muallif ko'chmlari" deb shartli nomlangan ko'chmlargina ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadni amalga oshirish yo'lida semantik satxda og'ishini keltirib chiqaradi. Shoirning badiiy til bobidagi mahorati shu xil ko'chmlarni e'tiborga olishi bilan ko'zga tashlanadi. Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi ko'pchilik sezmaydigan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik va aloqadorlik negizidagi ko'chimlar kitobxonni hayratlantiradi va estetik zavq bag'ishlaydi.

Quyidagi she'rda shoira Nodira Afoqova [I<sup>h</sup>-F]=SB qolipi hosilalaridan betakror obrazli ifoda vositalarini yaratar ekan, o'zbek tilida harakatning muayyan obyektga bevosita o'tganligini anglatuvchi sintaktik imkoniyatlarini kitobxon qalbidan o'z o'rnini egallashi haqida aniq xulosa yasashga imkon beruvchi poetik nutq jozibadorligini ta'minlaydigan va ohori ko'z qirida ham bilinadigan yorqin birikmalar orqali gavdalantiradi. Fikrimizning dalili o'laroq "Iqra" va "Ona tilim, onajonim" she'rlaridan quyidagi parchalarni keltirish mumkin:

1. **So'zni sev!**

*To'shalsang* tuproq misoli,  
*Vaqt o'tar* ustingdan o'xshab mehmonga.  
*So'zning* ko'zgidida – *Ruhning* jamoli,  
*Shunchaki* qo'l cho'zsang – yetar osmonga... [1;10]

2. *Tilim, sen – otamdan* qolgan dalamsan,  
**Dardlarimni eksam** – gulday o'stirgan.

*Qodiriy bog'ida* billur shabnamsan –  
*Tangrim* jamolini aks ettirgan.  
*Qaro nasrda* ham kuyday ravonim –  
*Ona tilim, onajonim.* [1;12]

Shoir hayot ziddiyatlari to'qnashuvida oddiy ko'z va shuur bilan anglab bo'lmas nuqtalarni topib, bir-biriga sira aloqasizdek tuyuladigan hodisalar aloqadorligi zaminida go'zallik yaratishini N.Afoqovanning *so'zni sevmoq* (matnda grammatik shakllangan kesim formasida: **So'zni sev!**), *dardni ekmoq* (matniy qo'llanishda tobe gap formasida: **Dardlarimni eksam**) kabi metaforik obyektli birikmalari ham tasdiqlaydi. Zero, bu birikmalar [I<sup>h</sup>-F]=SB lisoniy-sintaktik qolipi mahsuli sanalsa-da, *sevmoq* va *ekmoq* fe'llari ham, *so'z* va *dard* otlari ham o'z denotativ ma'nolaridan uzoqlashgan, biroq leksemalarga xos konnotativ qo'llanish imkoniyatlaridan birinigina namoyish etib, poetik obraz yaratish vositalariga aylangan. So'zni ayol yoki erkak, umuman, insonni sevmoq kabi sevish, shuningdek, dardni urug' yoki ko'chatni ekmoq singari ekmoq lison sathida g'ayrime'yoriy, noodatiy va sun'iy bo'lishi tabiiydir. Poetik nutq esa bunday birikuvlar, ya'ni *so'zni sevmoq*, *dardlarni ekmoq* birikmalarini me'yoriy, tabiiy va ayni nutq uchun odatiy

bo'lishini e'tirof etadi. Shu bilan birga, bunday birikmalar har bir ijodkor uslubini belgilaydigan obrazlar olamini tashkil etuvchi vositalar kabi qiymatga egaligi uchun alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

**Xulosa.** Badiiy tilning eng muhim spesifik xususiyatlari sifatida obrazlilik va emotsionallikni ko'rsatuvchi, badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalar bo'lmish badiiy tasvir va ifoda vositalari, shuningdek, ko'chim turi bo'lmish metaforalar ham poetik nutqda turlicha badiiy-estetik maqsadlar bilan voqelashadi. Bu kabi birliklar poetik tasvirni berishda, ifodalanayotgan fikrning emotsional ekspressivligini ta'minlashda muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Turfi xil mazmun-mohiyatni ifodalovchi metaforalar so'z birikmasi shaklida voqelashadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Afoqova Nodira. *Qora navo. She'rlar.*–T.: Akademiya nashri, 2011. -96b.
2. Azimov Usmon. *Dars. She'rlar.*–T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. -126 b.
3. Назарова С.А. *Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда.* –T.: Фан, 2015. – 112 б.
4. Орипов Абдулла. *Menga xush xabar ayt. She'rlar.*–T.: Ma'naviyat, 2009. - 128 b.
5. Parfi Rauf. *So'nggi vido. She'rlar.*–T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. - 134 b.
6. Qilichev E. *Badiiy tasvirning leksik vositalari.* –T.: Fan, 1982. - 87 b.
7. Rahmon Shavkat. *Saylanma.*–T.: Sharq, 1997. -384 b.
8. Yusufovna, Yokubova Shaxnoza. "Poetik nutqda ma'no ko'chish yo'llari. "Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar" onlayn ilmiy jurnali. (2022): 674-677.
9. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.